

---

## MOL-MULK DAXILSIZLIGI BORASIDAGI TARG'IBOTLAR

Qo'shtepa tumani Qo'riqlash bo'limi tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar mol-mulkining ishonchli qo'riqlovini ta'minlash, huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish borasida qo'riqlash xizmatining afzalliklari yuzasidan aholi o'rtasida muntazam ravishda targ'ibot va tashviqot ishlari olib borilmoqda.

Jumladan, bugun "Qiyqi" MFYda navbatdagi targ'ibot tadbiri o'tkazildi. Tadbir davomida ishtirokchilarga qo'riqlovga olishning tartiblari, signalizatsiya vositalarining xonadonlarga bepul o'rnatilishi, xizmat ko'rsatish turlari va tariflari borasida atroflicha ma'lumot berildi.

2025-02-04 16:01:31